



\_\_\_\_\_ hokimligi  
*maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*  
\_\_\_\_\_ning

*20\_\_-20\_\_-o'quv yili 4- sinflar  
iqtidorli o'quvchilar uchun  
"DURDONA TILIM" NOMLI*

**TO'GARAK  
HUJJATLARI**

## To'garak a'zolari haqida ma'lumot

<b>№</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to'liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona \_\_\_\_\_





20\_\_-20\_\_-o‘quv yili iqtidorli o‘quvchilar uchun tuzilgan “Durdona tilim”  
to‘garagining  
ISH REJASI

No	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Sifatlarning ma’no munosabati			
2.	O‘z va ko‘chma ma’nodagi sifatlar			
3.	Sifatlarning ma’no turlari			
4.	Rang-tus, maza-ta’ m bildiruvchi sifatlar			
5.	Shakl bildiruvchi sifatlar			
6.	Xil-xususiyyatni bildiruvchi sifatlar			
7.	Sifatlarning ma’no turlari			
8.	Sifat yasovchi qo‘shimchalar			
9.	Sifatlarning imlosi			
10.	Son-so‘z turkumi			
11.	So‘roqlar yordamida sonni topish			
12.	Sonlarning turlari			
13.	Rasm asosida hikoya tuzish			
14.	Tartib sonlar			
15.	Tartib sonlarni mustahkamlash			
16.	Sanoq va tartib sonlar yordamida birikmalar hosil qilish			
17.	Harfiy ifodalar			
18.	Matndan sonlarni topish va tahlil qilish			
19.	Kishilik olmoshlari			
20.	Kishilik olmoshlarini mustahkamlash			
21.	Kishilik olmoshining kelishiklar bilan qo‘llanishi			
22.	Kishilik olmoshlarining kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi			
23.	Matndan kishilik olmoshlarini aniqlash			
24.	Kishilik olmoshlarni gaplarda to‘g‘ri qo‘llash			
25.	Fe’l-so‘z turkumi			
26.	“Non-rizq-ro‘zimiz” mavzusida kichik hikoya yozish.			
27.	Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar.			
28.	Bo‘lishli fe’llar			
29.	Bo‘lishli fe’llardan bo‘lishsiz fe’llarni hosil qilish			
30.	Matnda fe’llarni to‘g‘ri qo‘llash.			
31.	Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarni mustahkamlash			
32.	Fe’l yasovchi qo‘shimchalar			
33.	Fe’l yasovchi qo‘shimchalarning imlosi			
34.	Fe’llarning kelishik so‘zlar bilan bog‘lanishi.			

Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Sifatlarning ma’no munosabati

**Ta’limiy:** Sifatlarning otga bog‘lanishi, gapdagi vazifasi haqida bilim berish.

**Tarbiyaviy:** O‘quvchilarda insoniy sifatlarni tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish.

**O‘quv jarayoniga oid kompetensiya:** axborot manbalaridan va mashg‘ulotlik materiallaridan tashqari (kitob, lug‘at) manbalardan ma’lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; mustaqil o‘qib-o‘rganish va bilimni muntazam oshirib borish; maktabning ichki va tashqi qoidalariga rioya qilish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish; sifat va ularning otga bog‘lanishini, gapdagi vazifasini, ma’no turlarini, *-ser, be-, -siz, -li, -cha, -dor, -q* sifat yasovchi qo‘shimchalar ekanini, yozilishini biladi, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli qo‘llay oladi, nutqda so‘zlarning grammatik shakllaridan to‘g‘ri foydalana oladi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

Mashg‘ulotning turi: umumlashtiruvchi, mustahkamlovchi

Mashg‘ulotning metodi: savol-javob, amaliy, mustaqil ish metod.

Mashg‘ulotning jihozi: rasm va jadvallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**


Davomatni aniqlash.

Navbatchi axboroti.

Mashg‘ulotga hozirlikni tekshirish.

**II. Uy vazifasini so‘rash va baholash.** Savol va topshiriqlar:

- Sifatlar otga qanday bog‘lanadi?
- Sifatlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi?
- Ularning tagiga qanday chiziq chiziladi?



**III Yangi mavzu bayoni Mashg‘ulotlik bilan. Ishlash.** 190- mashq. Berilgan sifat va otlardan foydalanib, birikma tuzing.

buyuk, ulug‘, katta, yirik;

olim, yozuvchi, bino, inson, davlat;

*Buyuk inson, ulug‘ olim, katta yozuvchi, yirik davlat.*

chiroyli, go‘zal, barno, suluv, dibar;  
qiz, bola, yigit, kelinchak, shahar, diyor.

Chiroyli shahar, go‘zal diyor, suluv kelinchak, barno qiz.

Sifatlarning yozilishini yodingizda tuting.

**Ma‘nodosh sifatlarning har biri bitta ot bilan bog‘-  
lana oladimi? Fikringizni misollar bilan asoslang.**

**IV Mustahkamlash . 191-mashq.** O‘qing. Berilgan sifatlarni ma‘nolariga ko‘ra guruhlab yozing. Ularning ma‘nolarini izohlang.

1. Betashvish, noiloj, g‘ussasiz, qahrli, g‘amsiz, g‘azabli, ilojsiz, g‘azabnok, chorasiz, tashvishsiz. 2. Sovuq, egri, boy, yumshoq, aqlli, lapashang, to‘g‘ri, issiq, kambag‘al, qattiq, axmoq, chaqqon. Yuqoridagi sifatlardan qatnashtirib kichik hikoya tuzib yozing.

1. Betashvish, g‘ussasiz, g‘amsiz: Noiloj, ilojsiz, chorasiz: Qahrli, g‘azaabli, g‘azabnok:  
2. Sovuq – issiq, egri – to‘g‘ri, boy – kambag‘al, yumshoq – qattiq, aqlli – axmoq, lapashang – chaqqon.

**V. Baholash.** Mashg‘ulotdagi ishtiroklariga ko‘ra baholanadilar.

**VI. Uyga vazifa.** 192-mashq. O‘qing. Sifatlarning ma‘nodoshlarini topib, namunadagidek guruhlab yozing. Namuna: ko‘rkam, chiroyli, ...

Ko‘rkam, sezgir, katta, chaqqon, chiroyli, epchil, ziyrak, ulkan, shod, jasur, xursand, qahramon.

Ko‘rkam, chiroyli, sezgir. Ziyrak, katta, ulkan, chaqqon, epchil, jasur, qahramon, shod, xursand.

Berilgan sifatlardan qatnashtirib, kichik hikoyacha tuzib yozing.

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** O‘z va ko‘chma ma‘nodagi sifatlar

**Maqsad:** Ta‘limiy : Sifatlarining otga bog‘lanishi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

**Tarbiyaviy:** O‘quvchilarda insoniy sifatlarni tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish.

**O‘quv jarayoniga oid kompetensiya:** axborot manbalaridan va mashg‘ulotlik materiallaridan tashqari (kitob, lug‘at) manbalardan ma‘lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; mustaqil o‘qib-o‘rganish va bilimni muntazam oshirib borish; maktabning ichki va tashqi qoidalariga rioya qilish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish; sifat va ularning otga bog‘lanishini, gapdagi vazifasini, ma‘no turlarini, *-ser, be-, -siz, -li, -cha, -dor, -q* sifat yasovchi qo‘shimchalar ekanini, yozilishini biladi, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli qo‘llay oladi, nutqda so‘zlarning grammatik shakllaridan to‘g‘ri foydalana oladi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

Mashg‘ulotning turi: umumlashtiruvchi, mustahkamlovchi

Mashg‘ulotning metodi: savol-javob, amaliy, mustaqil ish metod.

Mashg‘ulotning jihozi: rasm va jadvallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Davomatni aniqlash.

Navbatchi axboroti.

Mashg‘ulotga hozirlikni

tekshirish.

**II. Uy vazifasini so‘rash va baholash.** Savol

va topshiriqlar:

- Sifatlar otga qanday bog‘lanadi?

- Sifatlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi?

- Ularning tagiga qanday chiziq chiziladi?

**III. Yangi mavzu bayoni.** “Kim kop sifatga misol keltiradi” o‘yinini o‘ynaymiz. Golib o‘quvchilar baholanadilar.

**193-mashq.** Birikmalardagi sifatlarning ma‘nosini taqqoslang.

Qalin kitob — qalin o‘rtoq, chiroyli gul — chiroyli nutq; og‘ir tosh — og‘ir bola, yaqin yo‘l — yaqin dugona; o‘tkir pichoq — o‘tkir til, shirin tarvuz — shirin uyqu.

**Topshiriq:** Ko‘chiring. O‘z ma‘nosida qo‘llangan sifatlarning tagiga chi-zing. Ko‘chma ma‘noda qo‘llangan sifatlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.

*Akmal bilan Anvar qalin o‘rtoq. Sinfdoshimiz tadbirda chiroyli nuta so‘zladi. Zahro va Zuxra yaqin dugona.*

**IV Mustahkamlash.** **194- mashq.** O‘qing. Sifatlarining ma‘nosiga e‘tibor bering.

Shirin bola, achchiq gap, qalin do‘st.

**Topshiriq:** Birikmalardagi sifatlarni o‘z ma‘nosida qo‘llab, gap tuzib yozing.

*Men ertalab shirin choy ichdim. Hovlimizda achchiq qalampir ko‘chati o‘sadi. Sayyohlar qalin o‘rmonda adashib qoldilar.*

**V. Baholash.** Mashg‘ulotdagi ishtiroklariga ko‘ra baholanadilar.

**VI. Uyga vazifa.** 195-mashq. Qattiq, yumshoq, iliq, qalin, yengil sifatlarini o‘z va ko‘chma ma‘noda qo‘llab, gap tuzib yozing.

Qattiq tosh, qattiq qo‘l, Yumshoq non, yumshoq qalb. Iliq ovqat, iliq havo, qalin kitob.





Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Sifatlarning ma’no turlari

**Maqsad: Ta’limiy:** o‘quvchilarning sifat so‘z turkumi haqidagi umumiy bilimlarini aniqlash. Sifatlarning rang-tus, maza, hajm-shakl, xil-xususiyyat kabi ma’no turlari haqida, ularning otlarga bog‘lanishi haqidagi bilimlarni kengaytirish. **Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni tozalik, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishga o‘rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning lug‘atini boyitish; Mashg‘ulotning turi: umumlashtiruvchi, mustahkamlovchi

**O‘quv jarayoniga oid kompetensiya:** axborot manbalaridan va mashg‘ulotlik materiallaridan tashqari (kitob, lug‘at) manbalardan ma’lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; mustaqil o‘qib-o‘rganish va bilimni muntazam oshirib borish; maktabning ichki va tashqi qoidalariga rioya qilish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish; sifat va ularning otga bog‘lanishini, gapdagi vazifasini, ma’no turlarini, *-ser, be-, -siz, -li, -cha, -dor, -q* sifat yasovchi qo‘shimchalar ekanini, yozilishini biladi, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli qo‘llay oladi, nutqda so‘zlarning grammatik shakllaridan to‘g‘ri foydalana oladi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

Mashg‘ulotning metodi: savol-javob, amaliy, mustaqil ish metod.

Mashg‘ulotning jihozi: rasm va jadvallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Davomatni aniqlash.

Navbatchi axboroti.

Mashg‘ulotga hozirlikni tekshirish.

**II. Uy vazifasini so‘rash va baholash.**

- Sifatlar otga qanday bog‘lanadi?

- Sifatlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi?

- Ularning tagiga qanday chiziq chiziladi?

**III. Yangi mavzu bayoni.** O‘quvchilarga magnitofonga yozilgan so‘zlar eshittiriladi. *Ko ‘k, shirin, dumaloq, mazali.* O‘quvchilar eshitib bo‘lgach, so‘zlarni ichlarida bo‘g‘inga bo‘lib yozadilar. So‘ng yana boshqa so‘zlar eshittiriladi. *Bo ‘rsildoq, xushbo ‘y, aziz, to ‘yimli, lo ‘ppi.* O‘quvchilar bu so‘zlarni ham yozib olishadi.

— Yozgan so‘zlaringiz qaysi narsaning belgisi bo‘la oladi? Mevalardan birini toping. (*Qizil, shirin, dumaloq, mazali* sifatleri olmaning belgisi bo‘la oladi.)

— *Bo ‘rsildoq, xushboy, aziz, to ‘yimli, lo ‘ppiso‘zlarinimaning belgilaribo‘laoladi?* (Nonning belgilari bo‘ladi).

— Har bir belgining xususiyatini aytib be ring.

196 - mashq. Rasmdagi mevalarning rangini, shaklini, hidini, mazasini ayting va nomi bilan yozing.



*Shirin olma, nordon ehi, achchiq anor, achchiq sarimsoq, nordon olcha, shirin gilos, nordon dovuchcha, nordon limon, shirin malina.*

O'ylang! Sifatlar narsa va shaxslarning qanday belgilarini bildiradi?

Sifatlar shaxs va narsalarning rangini, mazasini, shaklini, hajmini va xil-xususiyatini bildiradi

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlarni siz ta'mi, shakli, rangi, xususiyati bo'yicha ajratdingiz. Sifatlarining narsa va shaxslarning qanday belgilarini bildirishiga ko'ra quyidagi ma'no turlari bor:

197 - mashq. Sifatlarining ma'no turlariga misol topib, qatorlarni davom ettiring.

1. Rang-tus bildiruvchi sifatlar: *sariq, yashil, oq, qora.*
2. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar: *nordon, achchiq, shirin, chuchuk.*
3. Shakl bildiruvchi sifatlar: *qiyshiq, egri, to'g'ri, tekis.*

281- mashq. O'quvchilar mashqda berilgan so'zlarni ma'nosiga ko'ra jadval chizib joylashtiradilar. So'zlar ichidan ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli sifatlarni topadilar. So'zlarning yozilishini esda tutish uqtiriladi.

N a m u n a: *keng — tor, shirin — taxir, keng, bepoyon, cheksiz, botir, jasur.*

O'quvchilar sifatlarning ma'no turlariga misol topib, mashg'ulotlikda berilgan qatorni davom ettiradilar. Eng ko'p sifat topgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Shu o'quvchi doskaga sifatlarni

yozadi. O'qituvchi bilan xatolarini tuzatgach, qolgan o'quvchilar daftarlariga yozib oladilar.

**V. Baholash.** Mashg'ulotdagi ishtiroklariga ko'ra baholanadilar.

**VI. Uyga vazifa.** 198- mashq. Sifatlarni ma'nosiga ko'ra guruhlang.

Keng, taxir, oppoq, kichkina, qo'lansa, bepoyon, egri, cheksiz, sassiq, qiyshiq, botir, tor, shirin, jasur, dumaloq, badbo'y, yam-yashil, saxiy, sho'x, yoqimli, aqlli, qip-qizil, achchiq, yapaloq.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar	Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar	Hajm bildiruvchi sifatlar	Shakl bildiruvchi sifatlar	Xil xususiyat bildiruvchi sifatlar
Oppoq Yam – yashil Qip-qizil	Taxir Shirin Achchiq Qo'lansa	Keng Kichkina Cheksiz	Egri Yapaloq Tor Dumaloq	Qiyshiq Aqlli Yoqimli

Sana: “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Rang-tus, maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar

**Maqsad:**

**Ta‘limiy:** Sifatlarning ma‘no turlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash

**Tarbiyaviy:** O‘quvchilarda insoniy sifatlarni tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish.

**O‘quv jarayoniga oid kompetensiya:** axborot manbalaridan va mashg‘ulotlik materiallaridan tashqari (kitob, lug‘at) manbalardan ma‘lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; mustaqil o‘qib-o‘rganish va bilimni muntazam oshirib borish; maktabning ichki va tashqi qoidalariga rioya qilish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish; sifat va ularning otga bog‘lanishini, gapdagi vazifasini, ma‘no turlarini, *-ser, be-, -siz, -li, -cha, -dor, -q* sifat yasovchi qo‘shimchalar ekanini, yozilishini biladi, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli qo‘llay oladi, nutqda so‘zlarning grammatik shakllaridan to‘g‘ri foydalana oladi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

Mashg‘ulotning turi: umumlashtiruvchi, mustahkamlovchi

Mashg‘ulotning metodi: savol-javob, amaliy, mustaqil ish metod.

Mashg‘ulotning jihozi: rasm va jadvallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.**

Davomatni aniqlash.

Navbatchi axboroti.

Mashg‘ulotga hozirlikni tekshirish.

**II. Uy vazifasini so‘rash va baholash.**


- Sifatlar otga qanday bog‘lanadi?

- Sifatlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi?

- Ularning tagiga qanday chiziq chiziladi?

**III. Yangi mavzu bayoni.** O‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘laman. Sifatlarning ma‘no turlariga misol keltirish, ularni qanashtirib birikma va gap tuzish musobaqasi uyushtiraman. G‘olib guruh rag‘batlantiriladi.

**199 – mashq.** Rasmda tasvirlangan narsalarga mos rang bildiruvchi sifatlarni topib, birikmalar tuzing va yozing.



*Qalampir qip-qizil, piyoz sariq, kartoshka jigarrang, pomidor qizg‘ish, karam ko‘k, lavlagi to‘q qizil, turp ko‘k, rediska qizil, ko‘kat ko‘m-ko‘k.*

**IV Mustahkamlash.** 200-mashq. Ertakni o‘qing. So‘roqlar yordamida sifatlarni topib, o‘zi bog‘langan ot bilan ko‘chiring.

#### ASALNING YARATILISHI

*Ari avval duch kelgan narsalarni tamaddi qilar ekan. Shirin, bemaza, achchiq, chuchuk narsalarni yeyish uni bora-bora noziklashtiribdi. So‘ng u o‘ziga ma‘qui taomni topmoqchi bo‘libdi. Kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilibdi. Nihoyat xushta‘m taom tayyor bo‘libdi.*

*Ari chidam bilan mehnat qilib, shifobaxsh va lazzatli taom — asalni yaratibdi.*

**Topshiriq:** Maza-ta‘m biidirgan sifatlarning tagiga chizing. Maza-ta‘m bildiruvchi sifatlarning yozilishini yodingizda tuting. Shu so‘zlarning qaysi birida qanday xatoga yo‘l qo‘yishingizni ayting.

**V. Baholash.** Mashg‘ulotdagi ishtiroklariga ko‘ra baholanadilar.

**VI. Uyga vazifa.** 201-mashq. Rasmga mos maza-ta‘m bildiruvchi sifatlarni topib, birikmalar tuzing va yozing.

*Shirin olma, nordon ehi, achchiq anor, achchiq sarimsoq,  
nordon olcha, shirin gilos, nordon dovuchcha, nordon limon, shirin malina.*

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

*vab-saytimiz: Zokirjon.com*  
*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

**Ona tili fanidan 4-sinf iqtidorli o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**


**Narxi: 20 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyeu Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**